



O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYASI INSTRUMENTLARINI TADBIQ QILISH IMKONIYATLARI

Abdullayev Suxrobiddin Ismoilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

"Moliya" kafedrası assistenti

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.8185374>

ARTICLE INFO

Received: 16th July 2023

Accepted: 24th July 2023

Online: 26th July 2023

KEY WORDS


Islom moliyasi, islom moliyaviy instrumentlar, moliyaviy institutlar, diversifikatsiya, rivojlanayotgan moliyaviy bozorlar.

ABSTRACT

Mazkur maqola bugungi kunda islom iqtisodiyoti va islomiy qimmatli qog'ozlar, Islomiy moliyasi tufayli jahon moliya tizida va moliya markazlarida islom moliyasi instrumentlari rivojlantirishga hamda buning natijasida katta-katta islomiy banklar, islom moliyasi instrumentlarini emissiya qiladigan tashkilotlar, moliyaviy institutlar haqida ma'lumot berishga qaratilgan.

Bugungi kunda islom moliyasi butun dunyoda yuqori sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan sohalardan biridir. Iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ham bu tizimdan samarali foydalanmoqda. O'zbekiston aholisining asosiy qismi musulmonlar tashkil etganligi sababli islom moliyasi uchun yuqori darajada etij mavjud. Islom moliyasining instrumentlarini mamlakatimiz iqtisodiyotiga tadbiq qilishda va islomiy qimmatli qog'ozlarni chiqarishda o'ziga xos risklarni inobatga olgan holda xalqaro tajribani, jumladan yaqin sharq davlatlari tajribalarini o'rgangan holda, mukammal huquqiy asos sifatida. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-dekabr kuni Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnomasida (Qaror 2021,) "Mamlakatimizda islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo'yicha huquqiy bazani yaratish vaqti-soati keldi. Bunga Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etiladi", degan so'zlari bu borada uzoq kutilgan o'zgarishlarga asos bo'ldi. Islomiy moliya tarmog'i bugungi kunda jahonda jadal rivojlanib borayotgan va innovatsion moliyalashtirish mexanizmlarini o'zida jamlagan sohalardan biri hisoblanadi. Mutaxassislarning fikriga ko'ra, islomiy moliya muassasalari yalpi aktivlari miqdori 2,5 trillion AQSH dollarini tashkil etadi va yiliga 15-20%ga o'sib bormoqda. Islom moliya institutlari zamonaviy jahon iqtisodiyotining bir qismi bo'lib, boshqa an'anaviy moliya bozori ishtirokchilari kabi iqtisodiy qonunlarga bo'ysunadi. Islom kapital bozori mexanizmi o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa tizimlardan farq qiladi. Iqtisodiy agentlar nafaqat huquqiy qoidalarga, balki axloq qoidalarini va diniy ko'rsatmalarni o'zida jamlagan shar'iy qoidalarga ham amal qiladilar. Islom moliya institutlari tomonidan qo'llaniladigan moliyalashtirishning asosiy vositalari o'ziga xos xususiyatlarga ega: har qanday aktivning qiymatini uning haqiqiy qiymatidan kelib chiqib baholash, har bir shartnoma faqat moliyaviy xizmatlarning bir turi bo'yicha tuziladi, tovarlar narxini aniq belgilash, har bir sherikning foyda zarardagi ulushini aniq belgilash zarur hisoblanadi. Bizning mamlakatimizda ham ushbu sohaga aholi,

tadbirkorlar va moliya muassasalari tomonidan qiziqish katta. Islom iqtisodiyotining o'ziga xos jihati shundaki, u insonlarning moddiy ehtiyojlaridan tashqari ruhiy, ma'naviy va ijtimoiy ehtiyojlarini ham inobatga oladi va shu sababli erkin bozor qonunlarini inkor qilmagan holda, jamiyat manfaatlarini ta'minlash, hamda bozorda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan isrofgarchilik, insofsizlik, aldamchilik va adolatsizlikni oldini olish maqsadida muayyan ma'naviy-axloqiy chegaralar o'rnatadi. Islom moliyasi instrumentlarini emissiya qiladigan moliyaviy institutlar va boshqa tashkilotlar mablag'larni jalb qilib, ulardan foyda olish maqsadida, tavakkalchilik bilan foyda keltiruvchi islom qimmatli qog'ozlarini emissiya qilib bormoqda. Yildan-yilga islom moliyasini va islom moliyasi instrumentlarini rivojlanishining sababi halollik muhiti o'z aksini topganligida, shu tufayli risklar ham kamligidadur. Risklarni kamligi ta'siri oqibatida investorlarning islom moliyasi instrumentlariga bo'lgan ishonchi ortib bormoqda. Foyda darajasi barqaror ya'ni ko'pligi natijasida islomiy qimmatli qog'ozlarning jozibadorligi oshib bormoqda. Bu albatta investorlarga bir qator afzalliklar va foydani kafolatlaydi. Islomda shartnoma Shariatga zid bo'lmagan taqdirdagina qonuniy hisoblanishi mumkin. Islom moliyasi shartnomalari Islom sivilizatsiyasi davomida Shariat doirasida va jamiyat talablari asosida rivojlanib kelgan. Islom moliyasi sektorning o'sishi 2020-yil davomida 95ta islom fondlarining ishga tushirilishi bilan ham qo'llab-quvvatlandi, bu esa islom moliyasi boshqaruv ostidagi aktivlarga 1,5 milliard AQSh dollar qo'shishiga olib keldi. Ularning aksariyati Malayziya, Indoneziya, Pokiston va Saudiya Arabistoni kabi davlatlarga to'g'ri kelmoqda. Aktivlar turlari bo'yicha islom fondlari o'rtacha jami ko'rsatkichi 6,8% ni tashkil etgan holda nisbatan yaxshi natijalarga erishilmoqda.



1-rasm. 2014-2020 yillar davomida Islom jamg'armalarining yillik o'sishi, milliard AQSH dollarida (Risola, 2021)

Refinitivning islom moliyasini hisobotiga ko'ra (1-rasm) islom fond sektori 2014-yilda 66 milliard AQSh dollarni tashkil etgan, 2015-yildan boshlab 71 milliard AQSh dollarni tashkil qilib 2015-yilga nisbatan 8% ga o'sish kuzatildi va bu ko'rsatkich 2016-2017-yillar davomida oshib 2017-yil yakunida 123 milliard AQSh dollarni tashkil qildi. 2018 yilda esa ko'rsatkich 9 milliard AQSh dollariga ya'ni 8% ga tushib 114 milliard AQSh dollarni tashkil qildi. 2019-yilda 146 milliard AQSh dollargacha ortib 2020-yil yakunida eng yuqori ko'rsatkich qayd etib 178 milliard AQSh dollarni tashkil qildi. Tahlil va natijalar 2025-yilga kelib bu ko'rsatkich 329 milliard AQSh dollarga ko'tarilishi prognoz qilinmoqda.



Aktivlar olami bo'yicha sug'urta va islom pensiya jamg'armalari sektorlari mos ravishda 10% va 11,1% o'rtacha jami o'sishning ikkita eng yaxshi ko'rsatkichiga ega bo'ldi. Islomiy birja fondlari 2020-yil davomida o'rtacha 9,5 foizga o'sish kuzatildi. Islom moliyasi bank tizimini tatbiq qilinishi masalasi mamlakatimiz aholisi va tadbirkorlari tomonidan uzoq yillar davomida kutilayotgan muhim masalalardan biri bo'lib kelayotganiga qaramay, bu sohani yaxshi biladigan mutaxassislar masalasi va bu sohada boshlang'ich bilimlarga ega bo'lgan aholi va tadbirkorlar soni kamchilikni tashkil qilmoqda. Shu boisdan avvalo aholiga bu sohadagi bilimlarni berish va islom moliyasining prinsiplarini va maqsadlarini tushuntirish asosiy masala bo'lib qolmoqda. Ananaviy banklar ham O'zbekistonda islom moliya muassasalarini tashkil qilish, moliya tarmog'ida halol va shaffof raqobat yuzaga kelishi, natijada mamlakatga sarmoyalar oqimi o'sishi va diversifikatsiyasiga olib kelishi haqida o'zining fikrlarini bildirib o'tganlar.

"Islom taraqqiyot banki ko'p tomonlama rivojlanish banki hisoblanib, 45 yil davomida a'zo mamlakatlarda hayot darajasi va sifatini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lamli institutsional yordam berib kelmoqda. Bank 4 ta qit'a bo'ylab 57 a'zo mamlakatlarni birlashtirib turibdi."

Malaysian Investment Development Authority xabar berishicha (2021-yil 5-avgust) "Malayziya mustahkam halol iqtisodiy ekotizimi tufayli ketma-ket yettinchi yil Global islom iqtisodiyoti ko'rsatkichi (GIEI) bo'yicha yetakchilik qilib kelmoqda, chunki mamlakat islomiy moliya va halol oziq-ovqat sektorlarida sezilarli darajada yetakchi hisoblanadi.

Islom moliyasi instrumentlari va banklarining G'arb davlatlari hududida yoyilishiga to'xtaladigan bo'lsak, Islom banki va moliyasi nafaqat Islom davlatlarida, balki G'arb davlatlarida ham keng tarqaldi. G'arbdagi mashhur Islom banki va institutlari quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin:

1-jadval

G'arb mamlakatlari hududidagi shakllangan dastlabki Islom moliya institutlari (Baydaulet, 2019)

Davlatlar	Islom moliya institutlari nomi	Tashkil topgan yil
Lyuksemburg	Islamic Banking International Holding	1978
Jeneva	Dar-al-mal-al-Islami	1981
Daniya	Al-Baraka" guruhi va Daniya xalqaro Islom Banki	1982
London	Islamic Finance House	1983

Yuqorida qayd etilgan muassasalardan tashqari, Islom banki xizmatlarini taklif etuvchi bir qancha dunyoga mashhur xalqaro an'anaviy banklar ham mavjud, jumladan, Chase Manhattan, Citibank, HSBC, Union Bank of Switzerland (UBS), BNP-Paribas, Standard Chartered va boshqa banklar shular jumlasidandir.

Islom moliyasi sifatida tashil etilayotga moliya tashkilotlari islom moliyasi shartnomalari orqali amalga oshiriladi. Islomda shartnoma Shariatga zid bo'lmagan



taqdirdagina qonuniy hisoblanishi mumkin. Islom moliyasi shartnomalari Islom sivilizatsiyasi davomida Shariat doirasida va jamiyat talablari asosida rivojlanib kelgan.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son qarori.
2. E.A.Baydaulet (2019) "Islomiy moliya asoslari", O'zbekiston, Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg'armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 5-martdagi PQ-4224-son qarori.
4. Abrorov Sirojiddin Zuxridin o'g'li (2021) Jahon mamlakatlarida sukuk bozori rivojlanishining tahlili Iqtisodiyot va ta'lim 5-son.
5. R.I.Bekkin (2019) "Islom iqtisodiy modeli va zamon", O'zbekiston, Toshkent.
6. Bruce Hearn va Roger Stranged (2015) Islom taraqqiyotini moliyalashtirishda fond bozorining roli: Sudan tajribasi Borsa Istanbul Review Volume 15, Issue 4, Pages 237-248.
7. Abrorov Sirojiddin va Imamnazarov Jahongir (2021) Islom moliyasi: O'zbekiston uchun yangi imkoniyatlar Iqtisodiyot va ta'lim 4-son.